«ANDISHA» LEKSEMASINING SEMANTIK MAYDONI («O‘tkan kunlar» romani misolida)

Rahmonova Madinabonu Habibulla qizi
Qo‘qon davlat universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
rahmonovamadina2908@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada «andisha» leksemasining semantik maydoni Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romani misolida o‘rganilgan. Leksemaning izohli lug‘atdagi ma’nolari aniqlanib, romandagi qo‘llanish o‘rinlari kontekstga ko‘ra ma’no guruhlariga ajratilgan. Kontekstual va komponent tahlil usullari yordamida semantik maydonning yadrosi va periferiyasi belgilangan hamda leksemaning milliy-madaniy xususiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *leksema, semema, sema, semantik maydon, integral sema, maydon yadrosi, periferiya, kontekst, milliy-madaniy sema.*

Kirish. Til va tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq: tafakkurdagi tushuncha leksemada mustahkamlanadi va nutq orqali boshqalarga yetkaziladi [1, 27-b.]. Masalan, adolat tushunchasi tafakkurda mavjud bo‘lib, uni adolat leksemasi nomlaydi. Ayniqsa, abstrakt tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning ma’no tuzilishi murakkab bo‘lib, ularda xalqning axloqiy qarashlari va milliy qadriyatlari ham aks etadi. Shunday leksemalardan biri «andisha»dir. U bir o‘rinda fikr va mulohazani, boshqa o‘rinda tashvish va hadikni, yana boshqasida hurmat, uyat va odob me’yorini ifodalaydi. Tadqiqotning maqsadi «andisha» leksemasining semantik maydonini aniqlash va uning ma’no qirralarini badiiy matn asosida ochib berishdan iborat. Shu maqsadga ko‘ra quyidagi vazifalar belgilandi: leksemaning izohli lug‘atdagi ma’nolarini aniqlash; roman matnidagi qo‘llanish o‘rinlarini to‘plash; ularni kontekstga ko‘ra ma’no guruhlariga ajratish; semantik maydonning yadrosi va periferiyasini belgilash. Tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiyotidagi shoh asari «O‘tkan kunlar» romani tanlandi. Tahlilda kontekstual va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Leksema – asosiy, birlamchi til birligi bo‘lib, til qurilishining lug‘at boyligiga mansub; shunga ko‘ra lug‘at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi [2, 22-b.]. Leksema shakl va ma’no birligidir. U bevosita semalardan emas, semema orqali semalar bilan bog‘lanadi: leksema → semema → semalar. Sema leksema ma’nosini tashkil etuvchi eng kichik birlik hisoblanadi.

Semantik maydon umumiy ma’no belgisi – integral sema asosida birlashgan birliklar majmuidir. Maydon yadrosi uning markaziy, eng umumiy va eng ko‘p qo‘llaniladigan qismi bo‘lib, integral semani to‘liq va aniq ifodalaydi. Periferiya esa maydonning chekka qismidir: u yadroga ma’no jihatdan bog‘langan, lekin bosh semani zaif, qo‘shimcha yoki ko‘chma shaklda ifodalaydi. Yadrodan periferiyaga o‘tgan sari maydon belgisi susayib boradi.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «andisha» leksemasining quyidagi ma’nolari qayd etilgan [3, 84–85-b.]:

1) ketini o‘ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza: Andishaning oti qo‘rqoq;

2) umuman fikr, mulohaza: Qandaydir andisha tutdi tilini;

3) sharm-hayo, or-nomusga amal qilish hissi: Halol va pok, vijdonli bo‘laylik, andishani ham unutmaylik.

Ko‘rinadiki, lug‘atda leksemaning «fikr, mulohaza» ma’nosi birlamchi, «sharm-hayo, odob» ma’nosi esa keyingi o‘rinda beriladi. Bu holat semantik maydon tuzilishini belgilashda muhim tayanch bo‘ladi.

Romanda «andisha» leksemasi Yusufbek hoji, Otabek, Hasanali, Mirzakarim qutidor kabi qahramonlar nutqida va muallif bayonida turli ma’nolarda qo‘llanadi. Kontekstga ko‘ra ular beshta ma’no guruhiga ajratildi.

1. «Fikr, mulohaza» semasi. «Basharti siz kiromlar ul beparhez zolimning mingboshilik vazifasidin tark etishka az dilu jon bel bog‘lagan bo‘lsalaringiz, biz faqirlarning aqli qosirimizga bir andisha keladir» [4, 273-b.]. Bu jumlada «andisha» fikr, o‘ylash ma’nosini ifodalaydi. Yuqori martabali shaxslarga murojaat qilinganda fikr to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, kamtarona shaklda bildiriladi: «aqli qosirimizga bir andisha keladir» birikmasi gapga kamtarlik va ehtirom tusini beradi.

2. «Xavotir, tashvish, g‘amxo‘rlik» semasi. «Bu holatdan Hasanalining andishasi ortib, bekning bunchalik angravlanishig‘a qanday ma’no berishini ham bilmas edi» [4, 21-b.]. Hasanali ishq dardiga chalingan Otabekdagi o‘zgarishlarga izoh topa olmay, tashvishga tushadi; uning holati aynan «andisha» so‘zi orqali ifodalangan. Ikkinchi misolda: «Siz qizimizning andishasini qilib o‘lturmangiz, bek, – dedi qutidor» [4, 149-b.]. Bu yerda «andisha» o‘ylash ma’nosidan uzoqlashib, birovning holi uchun qayg‘urish, g‘amxo‘rlik bilan bog‘liq tashvishni bildiradi.

3. «Hadik, cho‘chish» semasi. «Musulmonqul janobidek bir bahodirdan andisha qilmay uning dushmanlarini sarfaroz aylab...» [4, 115-b.]. Bu o‘rinda «andisha» kuchli shaxsdan cho‘chish, uning g‘azabidan hadiklanish ma’nosida qo‘llangan.

4. «Hurmat, birovning ko‘nglini o‘ylash» semasi. «...xotinimnigina emas, uning ota-onalarini andishasida shoshaman» [4, 157-b.]; «...ayniqsa bu gal qayin ota, qayin onalaridan andisha qilibdir» [4, 163-b.]. Bu misollarda «andisha» kattalarning ko‘ngli va obro‘sini o‘ylab, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ma’nosida keladi. «Andisha qilmoq» birikmasi bu yerda tortinish, istihola tusini ham beradi.

5. «Uyat, or-nomus, odob me’yori» semasi. «Uyatni bilsangiz, eng ozi shuning andishasi kerak emasmi?» [4, 157-b.]; «So‘zingiz yerda qoladir, buv Oftob, bir oz andisha ham lozim» [4, 351-b.]. Birinchi gapda «andisha» «uyat» bilan yonma-yon kelib, axloqiy me’yor ma’nosini ifodalaydi. Oftoboyimga qarata aytilgan ikkinchi gapda esa odob doirasida o‘ylab gapirishga chaqiriq bor. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

Jadval. «Andisha» leksemasining «O‘tkan kunlar» romanidagi ma’no guruhlari

Ma’no guruhi	Asosiy semalar	Misol (kim nutqida)	Maydondagi o‘rni
1. Fikr, mulohaza	fikr, o‘ylash, mulohaza	Yusufbek hoji tarafdorlari	yadro
2. Xavotir, g‘amxo‘rlik	xavotir, tashvish, g‘amxo‘rlik	Hasanali; Mirzakarim qutidor	1-periferiya
3. Hadik	hadik, cho‘chish	Musulmonqul haqidagi gap	1-periferiya
4. Hurmat	hurmat, istihola, ko‘ngil o‘ylash	Otabek (qayin ota-onasiga munosabat)	2-periferiya
5. Uyat, odob	uyat, or-nomus, odob me’yori	Oftoboyimga qarata aytilgan gap	2-periferiya

Demak, semantik maydonning yadrosini lug‘atda ham birlamchi berilgan «fikr, o‘ylash, mulohaza» semalari tashkil etadi. Birinchi periferiyada xavotir, tashvish, g‘amxo‘rlik va hadik semalari joylashadi: ular hali «o‘ylash» bilan bog‘liq, ammo fikrga hissiy munosabat qo‘shiladi. Ikkinchi periferiyada esa hurmat, istihola, uyat va odob semalari turadi. Bu semalarda «o‘ylash» belgisi ancha susaygan, ularning o‘rnini milliy-madaniy mazmun – birovning ko‘ngli va obro‘sini o‘ylash, odob me’yoriga rioya qilish egallaydi.

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, «andisha» leksemasining ma’no tomoni leksema → semema → semalar zanjiri asosida shakllanadi. Uning semantik maydoni yadrosida «fikr, o‘ylash, mulohaza», birinchi periferiyasida «xavotir, tashvish, g‘amxo‘rlik, hadik», ikkinchi periferiyasida «hurmat, istihola, uyat, odob» semalari joylashadi. «O‘tkan kunlar» romanidagi misollar «andisha» leksemasi faqat aqliy faoliyatni anglatish bilan cheklanmasligini, nutqiy vaziyatga qarab ma’no qirralarini o‘zgartirishini ko‘rsatadi: Yusufbek hoji tarafdorlari nutqida u kamtarlik tusini olgan, Hasanali nutqida tashvish, qutidor nutqida g‘amxo‘rlik, Otabekning qayin ota-onasiga munosabatida hurmat, Oftoboyimga aytilgan gapda odob me’yori, Musulmonqul haqidagi jumlada esa hadik ma’nosida kelgan.

Ikkinchi periferiyadagi semalar maydon tuzilishida chekkada tursa-da, aynan ular leksemaga milliy-madaniy bo‘yoq beradi va uni «fikr» so‘zining oddiy sinonimidan farqlaydi. Shu jihatdan «andisha» o‘zbek xalqining axloqiy qarashlari, o‘zaro munosabat madaniyati va ijtimoiy odobi aks etgan milliy-madaniy konsept sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Oltin kitob, 2022.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili: darslik. – Toshkent: Universitet, 2006.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar: roman. – Toshkent: Sharq, 2018. – 383 b.